

Maktabda bir kun

– Maktab hovlisida Surayyo opamiz bilan suratga tushaylik, – deya Abbasxon bizni tashqariga yetakladi.

– Bu surat 6-«V» sinf o'quvchilaridan Surayyo opamizga esdalik bo'ladi, – Abbasxonning fikrini ma'qulladi Mahliyo.

O'quvchilarning takliflariga binoan barcha maktab hovlisiga chiqdi. Ular aytganidek, Surayyo opa o'quvchilar orasida esdalik uchun suratga tushdilar.

– Biz bilan ham suratga tushing, Surayyo opa, – deya boshqa sinf o'quvchilari Surayyo opaga iltimos qilishdi.

o'quvchilari erishayotgan yutuqlarining asosiy omili nimada deb o'ylaysiz?

– Yetti yildan buyon ana shu qadrdon maktabda faoliyat yuritaman. Shu yillar ichida maktabdagi har bir o'quvchi bilan alohida suhbatlashib, ularning ichki olamlarini o'rgandim. Har bir o'quvchining o'z olami, ichki kechinmalari, fikrlash doiralari turlicha ekanligiga shu yerda guvoh bo'ldim. Shu sababdan ham o'qituvchilar bilan bo'lib o'tadigan yig'ilishlarda ularga har bir o'quvchi bilan alohida shug'ullanishlarini maslahat berdim. Bu esa ko'rib turganingizdek, yaxshi natija berdi. Maktabda har bir o'qituvchi o'z fani bo'yicha



6-«V» HAMMADAN ZO'RMI?

– Mayli, faqat bir shartim bor. Sizlar ham 6-«V» sinf o'quvchilari kabi bilimda hammadan zo'r bo'lsangiz, keyingi safar sizlar bilan albatta suratga tushaman.

Surayyo opaning bu gaplaridan keyin Andijon viloyatidagi 35-ixtisoslashgan maktabning 6-«V» sinf o'quvchilariga qiziqib qoldik. Keyin bilsak... Keling, ular haqida Sizga ham ma'lumot berib o'tamiz.

Abbosxon va Mahliyo 6-«V» sinfining faol o'quvchilaridan hisoblanar ekan. Ular boshqa sinflardan o'zlarining bilimdonliklari va iqtidorlari bilan ajralib turadilar. Yangi mavzuni tezda o'zlashtirib olganliklari uchun uy vazifalarini doimo to'g'ri bajaradilar. Hattoki rus tili ustozlari Manzura opa Azimxo'jayeva 6-«V» sinf o'quvchilarini boshqa sinflarga o'rnatib ko'rsatadilar. Negaki, maktabda bo'lib o'tadigan tadbirlar va bellashuvlarda 6-«V» sinfi birinchilikni qo'ldan bermaydi. Nafaqat 6-«V» sinf o'quvchilari, balki bu maktabning aksariyat o'quvchilari o'z bilimlari bilan boshqa maktab o'quvchilaridan ajralib turarkanlar. Maktab, tuman, shahar Olimpiadalarida ishtirok etgan o'quvchilar, albatta ustozlari ishonchlarini oqlab qaytishar ekan. O'quvchilarini kuzata turib, ular bilan suhbatlashib, bunday yutuqlarga erishishning biron siri bormikan, deya o'ylanib qoldik. Bu savollar bilan maktab ruhshunosi Surayyo opa Rahmatovaga murojaat qildik:

– Surayyo opa, ruhshunos sifatida maktabingiz

to'garak tashkil etib, o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olib, ularni shu to'garaklarga jalb etishdi. Iqtidorli o'quvchilar darsdan tashqari bo'ladigan to'garaklarda o'z bilimlarini yana-da boyitishmoqda. Shu sababdan maktabimiz o'qituvchilari ham, o'quvchilari ham yaxshi natijalarga erishmoqdalar.

– **Bizga ma'lum bo'lishicha, maktabingizda 1089 nafar o'quvchi bilim oladi. Gapingizga qaraganda, ana shu o'quvchilarning barchasi bilan alohida ish olib borasiz. Aytinch, bu yo'l bilan doimo kutgan natijangizga erishasizmi? Axir o'quvchilar orasida o'jar va qaysarlari ham uchrab turadi.**

– Albatta, o'jarroq o'quvchilarimiz bilan boshqacharoq usulda suhbat olib boramiz. Bunday o'quvchilarimiz bilan ko'pincha maktabimiz rahbari Ra'no opa Mo'ydinova ish olib boradilar. Yaxshi natijalarga juda tez erishmasak-da, vaqt o'tishi bilan qilgan ishlarimizning samarasini ko'rayapmiz.


Surayyo opa bilan uzoq suhbatlashishning hojati bo'lmadi. Negaki, o'quvchilarning o'zlari barcha savollarimizga javob berishdi. Ularning bilimdonliklari bizni quvontirdi. Bu maktab ustoz va o'quvchilariga omad tilab, ular bilan yana uchrashishga va'da berib xayrlashdik.

Gulyuz BAHODIR qizi,
Andijon – Toshkent

MIJONA NIMA DEGANI?

Bizning qishlog'imiz shunday nomlangan. Buvijonimning aytishlaricha, qishlog'imizning o'z tarixi bor. Qadimda Mirjon degan boy o'tgan ekan. U saxiyligi, qishlog' ahliga mehribonligi bilan nom chiqaribdi. Va odamlar qishloqni uning nomi bilan atay boshlashibdi. Bilasizmi, hozir ham qishlog'imizdagilar bir-birlariga yordam berib, ahil yashashadi. Men qishlog'im haqida bir kitobcha yozgim keladi. Chunki bu yerda yangi o'zgarishlar ro'y bermoqda. «Ahil mahalla» jamg'armasi tashkil etilib, iqtidorli yoshlar uchun ijodiyot markazi ham ochildi.

Mahbuba MUHAMMADOVA,
Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi
42-maktabning 9-sinf o'quvchisi




ALISHER BILAN BULBUL

Ilgari zamonda G'iyosiddin-Kichkina degan odamning Alisher ismli o'g'li bo'lgan ekan. Bola yoshligidan ziyarak bo'lib o'sibdi. U yetti yoshga to'lganda, she'rlar yoza boshlabdi. Odamlar u yozgan she'rlarni quloq berib tinglaydigan bo'lishibdi. Lekin bola yozgan she'rlarining tagiga o'z nomini nima deb qo'yishni bilmas emish.

Alisher bir kuni yangi she'rini yozib tugatibdi-da,

BILASIZMI? NANOTEKNOLOGIYA NIMA?



Keyingi yillarda gazetalarda bu so'z ko'p uchrarmoqda. Uning mazmunini, maqsad va vazifalari haqida ko'pchilik-katta-yu kichikni qiziqtirayotir.

Nanotexnologiya haqida dastlabki so'zlar o'tgan asrning 80-yillarida paydo bo'la boshladi. 1981-yili «IBM» korporatsiyasining Shvet-sariyadagi bo'limi xodimlari Pred Bimning va Geynrix Rorier yangicha Zarrabin, ya'ni mikroskop yaratdilar. Bu mikroskop juda kichik ignaning uchidan matoga sanchilayotganda, otilib chiqayotgan atom zarralarini ko'ra olish imkoniyatiga ega edi.

Aslini olgan «Nano» so'zining ma'nosi ham eng mayda zarra, ya'ni fizik olimlari ta'kidlayotgan minus to'qqiz darajadagi zarraning o'nligi degani. Boshqacha aytganda, bir nanometr taxminan bir atomning hajmiga tengdir.

Hozirgi kunda bir paytlar afsona bo'lib ko'rilgan eng yangi texnikaviy kashfiyotlar nanotexnologiya deb atalmoqda. Rossiya kabi bir qator davlatlarda bu olamshumul sohani muvofiqlashtiruvchi vazirlik va agentliklar tashkil etildi.

Yaponiya va AQSHda yaratilayotgan nanobotlar, kompyuter texnikasining eng so'nggi namunalari, hatto qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qo'llanilayotgan kimyoviy vositalar-bularning barchasi insoniyatni hayratga solmoqda.

Ammo nanotexnologiyalarning xalqlar uchun xavf-xatari haqida ham ayrim fikrlar, taxmin va farazlar ham bildirilmoqda. Buni esa kelajak ko'rsatadi.

boqqa chiqib uni baland ovozda o'qiy boshlabdi. Shu payt bog'dagi daraxtga chirmashgan qirq og'ayning shoxida o'tirgan bulbul Alisherning yoqimli ovozini eshitib qolibdi. Yosh shoirming goh qo'ng'iroqday jarangdor, goh tong shamoliday mayin ovozi bulbulni o'ziga maftun etibdi. Qushcha darhol uning yelkasiga qo'nibdi-da:

– Ey, hushovoz shoir, sen o'qigan she'rlar bulbullarning erta tongdagi navosidan ham yoqimli ekan. Nomingni bilsam bo'ladimi? – debdi.

– Men Alisherman! – javob beribdi bola.

– Bildim, bildim, yangi chiqqan shoir ekansanda. Endi sen o'zingga chiroyli bir nom tanlab, she'rlaringning ostiga o'sha nomingni qo'shib ketgin.

Alisherga bulbulning boyagi «navo» degan so'zi yoqib qolibdi. Shundan keyin yozgan g'azallari ostiga «Navoiy» deb yozib qo'yadigan bo'libdi.

NUQTANING QUDRATI

Mir Alisher Navoiy o'z g'azallarini zamonasining eng zo'r xattotlariga ko'chirtirdi. Nima bo'ldi-yu, o'z xattotini tobi qochib qoldi. Bundan xabardor bo'lgan o'zini mashhur xattotlardan, deb yurgan bir



Aziz bolalar!
Bu oyda ikki ulug' ajdodimizning –Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlari hamda shoh va shoir, dilbar shaxs deb e'tirof etilgan Bobur Mirzo bobolarimizning tavallud kunlarini ketma-ket nishonlaymiz. Bundan har qancha faxrlansak arziydi, chunki bu qo'shaloq bayram ham bizga berilgan katta, ulkan baxtdir.

SEN KUTGAN KUN!

Darvoqe, bugun sen kutgan kun.
Eslab qol: 9-fevral, 14-fevral.
Endi har ikki daho bobolarimiz hayoti va faoliyati bilan tanishamiz.

ALISHER NAVOIY

1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida tug'ildi.

Iroqning Taft shahrida yashadi.

1452-yilda yana Hirotga qaytdi.

Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Fariddin Attorning «Mantiq ut tayr» («Qush tili») asarlarini o'qidi. «Qush tili»ni to'liq yod oldi.

Xo'ja Yusuf Burxondan musiqa ilmini o'rgandi. Tarix, adabiyot, husnixat va boshqa ilmlarni ham o'zlashtira bordi.

Yirik shoirlardan biri Lutfiy yosh Alisherga ustozlik qildi.

Orazin yopqoch ko'zimdan sochular har lag'za yosh, Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.

Bu ajoyib g'azaldan hayratga tushgan Lutfiy: «Agar mumkun bo'lganda edi, men turkiy va forsiyda yozgan o'n ikki ming she'rimni shu bir g'azalga alishgan bo'lardim», degan ekan.

Navoiy Samarqandga keldi. U Fazlulloh Abulays va

Aloyi Shoshiy darslarida qatnashdi, turli suhbatlarda, g'azalxonliklarda, masala muhokamalarida ishtirok etib, bilimni boyitdi. Shoir Samarqanddagi hayotini umrbod esdan chiqarmadi, do'stlarini unutmad. 1469-yilda Hirotga qaytdi. 1472-yilda amirlik (Vaziri a'zam) darajasiga yetganda, tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh, Muhammad Olim Samarqandiy va musiqa ustozlari Darvish Ahmad Samarqandiyga doimo yordam berib turdi.


Uning tashabbusi bilan juda ko'p binolar: maktablar, musofirxonalar, maqbaralar, masjidlar, madrasalar, kasalxonalar, kutubxonalar qurildi, bog'lar barpo qilinib, hovuz va ariqlar qazildi. Mashhur tarixchi Xondamirning yozishicha, Alisher Navoiy Xalosiya xonaqohida har yili kishilarga 2000 ga yaqin po'stin, bosma chakmon, ko'ylak-lozim, taqiy va kavush ulashar ekan.

1501-yilning 3-yanvarida vafot etdi.

ASARLARI:

1. «Badoyi ul bidoya» («Badiiylik ibtidosi»).
2. «Navodir un nihoya» («Behad nodirliklar»).
3. «Xamsa», besh kitob. U quyidagi dostonlardan iborat:
 - a) 1483-y. «Hayratul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»).
 - b) 1484-y. «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor» («Yetti sayyor»).
 - v) 1485-y. «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori»).
4. 1488-1501-yy. «Tarixi muluki ajam» («Ajam shohlari tarixi»).
5. 1490-y. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher».
6. 1491-y. «Risolai muammo».
7. «Majolis un nabois».
8. 1492-94-yy. «Xamsat ul mutahayyirin» («Besh hayrat»).
9. 1492-y. «Munshaot».
10. «Mezoun ul avzon» («Vaznlar o'Ichovi»).
11. «Holoti Pahlavon Muhammad».
12. 1496-y. «Nasoim ul muhabbat» («Muhabbat shabadasi»).
13. «Xazoyin ul maoniy» («Ma'nolar xazinasi»).
14. «Devoni Foni».
15. 1489-99-yillar. «Lison ut tayr» («Qush tili»).
16. «Muhokamat ul lug'atayin» («Ikki til haqida muhokama»).
17. 1500-y. «Mahub ul qulub» («Ko'ngillarni sevgani»).
18. «Vaqqiya» (1482-yil).
19. «Nazm ul javohir» («Gavharlar tizmasi», 1485-yil).
20. «Siroj ul musulimin» («Musulmonlik nuri», 1488-yil).

Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi.



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

1483-yilning 14-fevralida Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'ildi.

12 yoshida taxtga o'tirdi.

1501-yil. Shayboniyxondan yengiladi.

1504-yil. Afg'onistonga ketadi.

1512-yil. Samarqandni qayta qo'lga kiritadi.

1513-yil. Shayboniyxondan yana yengiladi.

1525-yil. Panjob viloyatini egalladi.

1526-yil 27-aprel. Dehli shahri Bobur Mirzo qo'lga o'tdi va u Hindistonda Buyuk boburiylar davlatiga asos soldi. Bobur Mirzo 1530-yilning 26-dekabrda Agrada o'zi obod etgan Zarafshon chorbog'ida vafot etdi. Vasiyatiga ko'ra, 1533-yilda chevarasi Shohjahon uning hokini Qobulga ko'chirib, maqbara bunyod etdi.

ASARLARI:

1. Eng mashhur asari «Boburnoma»dir.
2. 1503-1504 yy. «Xatti Boburiy».
3. «Mufassal».
4. «Mujtalibai muxtar».
5. «Musiqiy ilmi».
6. «Harb ishi» (bizgacha yetib kelmagan).
7. 1521-yil. «Mubayyin» («Bayon etilgan»). Shuningdek, Xo'ja Ahroriy valiyning «Volidiya» asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.



Bori elga yaxshilik qilginki, munda yaxshi yo'q.
Kim degaylar da'ir aro qoldi falondin yaxshilig'.

maqtanchoq kishi: «Rozi bo'lsa, Navoiyning xizmatini jonim bilan bajarardim», dedi.

Shoir bu gapni eshitib, o'z she'rlarini unga ko'chirtirishga beribdi. Bir payt katta mushoirada Alisher Navoiyning qulog'iga: «Malikushsharoning o'zlari nuqson-qusurga yo'l qo'yibdilarmi, boshqalardan nima ham kutish mumkin», degan gap chalinibdi.

Gap nimadaligini darrov fahmlagan shoir boyagina ko'chirtirgan g'azallarini olib o'qib qarasa, maqtanchoq xattoti tushmagur «ko'z» so'zidagi bir nuqtani tushurib qoldirganidan, bu so'z «ko'r» bo'lib qolgan va she'r ma'nosi butunlay o'zgarib, aksincha chiqib qolgan ekan.

Navoiy ahli fozillarga qarab:

– Ko'zimni ko'r qilganlarning ko'zi ochilsin,
– deb xattotga javob berib yuboribdi.



Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 132-maktabning bir guruh o'quvchilari A.Navoiy nomidagi «Adabiyot va san'at» muzeyiga sayohat uyushtirdilar. Maroqli suhbat taassurotlari haqida gazetaning navbatdagi sonlarida o'qiydiz.

MAKTABIMIZDA REJISSOR BOR

«Ur-re, maktabimizda bayram!»

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. O'zimizning zamonda, Toshkent degan makonda bir maktab bor ekan. Uning o'qituvchi va o'quvchilari bayram-u tadbirlarni o'tkazishdan hech charchashmas emish...

«Farg'onani qoyillatdik!»

Ana shu 300-maktabning bu galgi tadbiri Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlanibdi. Unda o'n ikki viloyatdan mehmonlar kelib, Toshkentni bu yilgi to'yi bilan tabriklashibdi. Siz ham bu festivalni ko'rganingizda, «Shu shaharda yashab turib, shuncha ma'lumotlarni bilmas ekanman-da», deb o'ylanib qolgan bo'lardingiz. Chunki o'quvchilar poytaxtimiz 1930-yilda shu maqomga erishganini-yu, 280 dan ortiq mahallalar borligini aytib berdilar. Sahnada Anjir opa Xidiraliyeva rahbarlik qilayotgan 4-«D» sinf o'quvchilari Toshkent shahri qiyofasida gavdalanishdi. Shundan so'ng, sahnada qoraqalpoq xalqining milliy kiyimida 3-«E» sinf o'quvchilari paydo bo'lib, qoraqalpoq tilida tabrik aytishdi. Ularning kiyimini aytmaysizmi?! Shunday qilib, navbati bilan Andijon-u Buxoro, Farg'ona, Xorazm viloyatlari o'z chiqishlarini namoyon etishdi. 3-«B» sinfining rahbari Muborak opa Tojiyevaning aytishlaricha, bu sinf o'quvchilari Buxoro viloyatini tayyorlash barobarida ona yurtimizni chuqur o'rganib ham olibdilar. Maktab tadbirlaridan ko'zlangan maqsad ham shu-da! Eng qizig'i, bu maktabda tadbirlarni sahnalashtiruvchi rejissor bor emish. Ular tashkilotchi ustoz Munira opa Yusupova ekanlar. Umuman, bu maskanda barcha o'qituvchilar birgalikda harakat qilishadi, fidoiylik o'qituvchining eng birinchi fazilati ekanligini yaxshi bilishadi. Bugungi festival barcha boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan tashkillashtirilgan. Masalan, Jamila opa Umrzoqova va Shohida opa Sapparboyevaning aytishlaricha, viloyatlar tashrifi rejasini maktab rejissori Munira opa sahnalashtirganlaridan so'ng, viloyatlarni har bir sinf o'qituvchilari bo'lib olishib, alohida tayyorgarlik ko'rishibdi. Shuning uchun ushbu tadbir ma'lumotlar-u ajoyib sahna ko'rinishlariga boy bo'ldi. Endi yil davomida o'quvchilar Toshkentning bu yilgi to'yiga tayyor holda katta taassurotlar bilan o'z shaharlarini o'rganishda davom etishsa, ne ajab! Siz esa gazetamizni kuzatib borsangiz, turli maktablardan ajoyib ertag-u voqealarning guvohi bo'lasiz...

«Maktabimiz rahbari Jamila opa juda xursand ko'rinadilar».

«Qashqadaryoga borganmisiz?»

«Ho, laka-lakam o'ynasammi-yo?!»

Kavka qadè

«Jamalak sochlarimizni ko'ryapsizmi?»

«Bizning sinf zo'r-da!»

Sayyora JO'RAYEVA,
«Tong yulduzi» muxbiri

«He-he-hey!»

«Birlashgan – o'zar, deganlari shu-da!»


«Qoraqalpog'istondan salom, assalom!»

VIKTORINA

Qani aytingchi, nima uchun shamaning alangasi yorug' beradi-yu, spirt lampasining alangasi yorug' bermaydi?




Avtobuslarning sirtini chiroyli bo'yoq bilan bo'yashdan maqsad nima?



Qiziqarli ma'lumotlar

D.I.Mendeleyev Mendeleyevlar oilasining kenjatoyi. U Ivan Pavlovich Mendeleyevning 14-farzandi edi.



O'rtacha og'irlikdagi kishining tanasida besh chelakka yaqin suv bo'lishini bilasizmi?!

TOPISHMOQLAR

Otlari har xil,
Yoshlari bir xil...

(Hafta kunlari)

Bir tol o'sdi to'kka qadar,
Shu tolning o'n ikki shoxi bor.
Har shoxida to'rtadan uya bor,
Har uyada yettitadan tuxum bor.
Har tuxumning yarmi qoradir ko'rsang,
Yarmi oppoqdir, topgan bo'lsang...

(Yil, oy, kecha, kunduz)

Quvnoq TANAFFUS

DILNOZANING NECHTA 5 SO'MLIGI BOR?

Men ushbu sevimli sahifamizda «Bo'sh o'tirmay, bosh qotir» ruknida berilayotgan masalalarni yechishni yaxshi ko'raman. Tengdoshlarim ham tanaffusda mazza qilib turli rebuslarni yechishayotgan bo'lishsa kerak. Bu safar men ham bir masala yozib yubormoqdaman. Qani, kim hisob-kitobga usta? O'zingizni sinab ko'ring!

MASALA: Dilnozaning 45 ta 5 so'mlik va 10 so'mlik pullari bor. Ular jami 350 so'mni tashkil qiladi. Aytingchi, Dilnozaning nechta 5 so'mligi-yu va 10 so'mliklari bor?

Mirzobek SAYFULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Shahrizabz tumanidagi
88-maktabning 7-sinf o'quvchisi



Menga xat
yozinglar!

Men do'stlarim ko'p bo'lishini xohlayman. Shuning uchun «Quvnoq tanaffus» orqali bir-birimiz bilan do'stlashsak, degan taklifim bor. Manzilim bo'yicha menga xat yozsangiz, xursand bo'laman. Eng yaqin dugonam Yulduz esa juda yaxshi, mehribon qiz. Unga o'xshagan qizlar ko'payishini istayman.

Mahbuba NORMAMATOVA,
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumani



So'z o'yini

Bir oilada chol va kampir yashaydi. Ularning ikki o'g'li bor. Har bir o'g'lining bittadan singlisi bor. Ayta olasizmi, bu oilada nechta jon bor?

QANDAY IROL BO'LISH MUMKUN?


Men juda qiziqarli ma'lumotni bilib oldim: Fransiyada «Qirollik bayrami» o'tkazilar ekan. Unda bolalar o'z omadlarini sinab ko'rishadi. Buning uchun katta tort pishirilib, ichiga bir dona loviya solib yuborilar ekan. Loviya qaysi bolaning ulushidan chiqsa, u bayramning qiroliga

aylanadi. Va unga toj kiydirilib, turli shirinliklar bilan siylanadi. Karnaval esa fransuzlarning eng sevimli bayrami. Unda bolalar o'zlari istashgan hayvonni aks ettiruvchi kiyimlarni kiyib olib, raqsga tushishadi.

Dilfuza JUMAQULOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani



Kavsar TURDIYEVA



«ALIFBE»DA NECHTA HARF BOR?

(Boshi o'tgan sonlarda)

Ii


Tayoqcha to'g'ri, puxta,
Ustida bordir nuqta.

I topildi izimdan,
Izg'irindan, ismdan.
Hatto katta imorat,
Boshi I dan iborat.



O'z nomini oqlaydi,
Ma'lumotni saqlaydi.
Ne bo'lgan jahon bo'ylab,
Aytadi biroz o'ylab.

Qopag'onman, chopqirman,
Ziyrakman va topqirman.
Men iskovuch, men ovchi,
Va uylarga poyloqchi.



Orqangizda qolaman,
Sizdan nusxa olaman.

Ochiladi mehnatda,
Ovqat yeysan, so'ng katta.
Taomni ko'rib, bay-bay,
Deysan, ishtaha karnay.



Sendan bitta iltimos:
Meni yasa, so'ngra os.
Toshlar otib kuydirma,
Men qushlarga uydirman.

Ip izimdan chopadi,
Yamoqlarni topadi.
Qadab qo'ysam tugmani,
Siz taniysiz...



O'simlikda bittaman,
Yerga kirib ketaman.
O'zim har tomon yoziq,
Mendan o'tadi oziq.




(Davomi bor)

Hh

Qarasang H tomonga
O'xshab ketar narvonga.

Yettita og'a-ini,
Har birining bir kuni...




Undan nafas olasan,
Shar, ballonga solasan.
Juda toza erta tong,
Bo'lmaganda g'ubor, chang...


HA-HA! hi-hi!

Jahlim chiqardi Salim,
Yirtdim uning daftarin.
Hiring-hiring,
Qarasam ishim chakki.
Daftar ekan meniki.
Ho'ng-ho'ng!

Futbolda chalar hakam,
Uyda shumtaka ukam...




Go'zallik va tarovat,
Shu narsadan iborat...



Qovunvoyga ukadir,
Dalada ter to'kadir.
Qarang yorgancha palak,
Pishgan xushbo'y...

Har bir yurtning u eli,
Uning bordir o'z tili.

Qariyalar qo'lida
Yordam berar yo'lida...



Bordir shunday ajoyib bog'
U hayvonlarga yotoq...

TABRIKLAYMAN!

Taniqli bolalar shoiri, kamtarin, dilkash inson Tursunboy Adashboyev bilan men 2002-yilning may oyida Nukus shahrida bo'lib o'tgan «Respublika ijodkor o'qituvchilar» anjumanida uchrashganman. Mening she'rilarim bilan oldindan tanishgan ekanlar, juda iliq kutib oldilar. Hali mening «Sirli yomg'ir» deb nomlangan mo'jazgina birinchi kitobcham endigina bosmadan chiqqan bo'lsa-da, ijodimni katta baholab, o'zlarining yaxshi maslahatlarini berdilar.

Keyinchalik Toshkentga kelib, bir qancha she'rnlarni sharhlab, Rustam Nazar, Ollabergan Po'latov, Erpo'lat Baxt, Sodiqjon Inoyatov qatoriga yana bir Xorazmning bolalar shoiri kirib kelganidan xursandman, deb «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetalarida menga oq yo'l tiladilar.

Ustozimning bu iliq so'zlari menga yana-da kuch-qudrat, ko'tarinki ruh bag'ishladi. Shundan keyin to'rt-beshta kitobim turli nashrlarda bosmadan chiqdi.

Toshkentga borsam, ustoz bilan uchrashib turadigan, ustozning foydali maslahatlarini oladigan bo'ldim. Xonadonlarida mehmonda bo'ldim.

Mehmondan qaytayotib, mana shu satrlarni nevaralari nomidan yon daftaringga tushurib qo'ydim.

*Mening bobom zo'r bobo
Biram tetik, bardamlar.
Havas bilan qaraymiz,
Men ham oyim, dadamlar.*

*Yoshlaridan gap ketsa,
Deymiz: – Hali yigitsiz?
To'qqizinchi qavatga
Chiqasiz-ku liftsiz.*

Bolajonlarning sevimli shoiri, mehribon ustozimiz Tursunboy aka Adashboyev bu yil 70 yoshga to'lgan ekanlar, shu qutlug' yoshlari bilan muborakbod etaman.

Ustozimizga mustahkam sog'liq, uzoq umr tilagan holda, bolajonlarimizga hali ko'p ajoyib asarlar yaratishlarini istab qolaman.

*Yetmish yoshga to'lganlar,
Qutlug' bo'lsin yoshlari.
Yuz ellikka kirguncha,
Omon bo'lsin boshlari.*

Qo'zi ISMOIL,
bolalar shoiri

BOLALIK

*Aziz oylar ichra bolalarcha did,
Beg'ubor dunyoga bot-bot qaytaman.
Har tanishni ko'rsam miyaning magnit
Tasmasini qo'yib berar qaytadan.*

*Qumrim sayrab-sayrab ko'nglim eritgan,
Sayhonlik, qiy-chuvlar o'tar xayoldan.
Men cho'milgan ko'llar ko'milib ketgan,
Varragim chinorga ilinib qolgan.*

*Shamol qo'zg'atganda uchadi kushod,
Osmonda o'tkazar asl umrini.
Laycha itim kabi erkalanib shod
Har yon likillatar uzun dumini.*

IPAK QURTI

*E'zozlashdi mitti ipak qurtini,
Bo'shatib berishdi katta bir uyni.
Tut bargi iste'mol qildi yutib,
Shox uzra uyquga ketardi to'yib.*

*Qo'yishmadi uni hech o'z holiga,
To'ydirar uyqudan uyg'onganda och.
Yovuz chumoli ham uning oldiga
Hech topa olmadi kirishga iloj.*

*Uy egasi unga ko'rsatdi himmat,
U ham ehsonini qo'shqo'llab tutdi.
Tutday oq kafanni to'qib beminnat
Teshib tashlab ketdi mard ipak qurti.*

Mo'min AVAZEVA,
Sirdaryo viloyati, Sirdaryo shahri

TOG'ASINIKIGA BOROLMADI



Yakkakurashlarning turi ko'p. Qoidalari, yo'nalishlari, zarbalari turlicha.

Fudokan-karate-do sport turi 1993-yilda murabbiy Mixail Degtyarov sa'y-harakati bilan yurtimizga kirib kelgan. Fudokan-karate bugun rivojlanish pallasida.

Tatamida bolalarning shashti va shiddatini kuzatib havas bilan o'tirgan Erkin akadan:

– O'g'lingiz musobaqada qatnashyaptimi? – deb so'radik.

MASLAHAT

1. Taomlarni uzoq chaynab yeng, yaxshisi, sekinroq yeyishga doimo o'rganing.

2. Ovqatni shoshib yemang, ochko'zlik ham qilmang. Axir ovqat sizni «yeb qo'yishi» mumkin.

3. Ovqatlanayotib ko'p suv ichmang.

4. Charchadingizni, bo'lmasa, shirinliklardan yeng.

5. Siniq kosada ovqat yemang, suv ham ichmang.

6. Suv ichsangiz, sekin ho'plab iching, birdan ichib yuborish jigar kasalligini keltirib chiqaradi.

7. Behi shirin hiddi meva. Uni siz ko'proq yeyishni o'rgansangiz, yuragingiz baquvvat bo'ladi.

8. Asal yeyishni o'rganing, kasal bo'lmaysiz.

9. Sigirning suti shifodir, u jonivor turli dorivor giyohlarni yeydi.

10. Turshak (quruq o'rik) yurakka quvvat beradi. Albatta turshakni yeb tursangiz, sport sahnasi sizga muvaffaqiyatlar eshigini kengroq ochadi.

– O'g'lim Ma'ruf taekvando ITF mashg'ulotlariga qatnaydi. O'zim poytaxtda yashayman. Bu yerga jiyanim Bobur Norqorayevning janglarini ko'rishga kelgandim. Zo'rdan-zo'r ko'p ekan. Hatto tatamidagi 6-7 yoshli bolakayning bexato harakatlaridan hayajonlandim. Ularning g'alabaga ishonchi yuqori.

Jiyanim Bobur yutqazib qo'ydi. Oriyati kuchli xalqning farzandimizda. Bobur yutqazgach, mag'lublikka chidolmay, yig'layverib ko'zlari shishib ketdi. Bahslar tugadi. Uni ovutish uchun shaharni aylantirib, keyin uyg'a olib ketaman, desam, nima deydi deng: «Kerakmas, tog'a, rahmat, o'zingiz ketavering», deb hech ko'nmedi. Boburning bunday qat'iy javobidan shunday xulosaga keldim: sport bolani tarbiyalab, matonatligini shakllantirar ekan. Demak, ertangi kundan ko'nglimiz to'q. Ortimizda sog'lom va baquvvat kelajak yashnab turibdi.



SEN CHEMPION BO'LASAN!

Biz 6-sinfda o'qiyamiz. Sinfimizda ko'p bolalar o'zlarini qiziqtirgan sport turi va boshqa to'garaklarga qatnaydilar. Abdulloh Ahmadjonov esa sportchi. U sportning kikkboxing turida shug'ullanayotganiga bir yildan oshdi. Yana Abdulloh shahramizdagi «Jar» sport majmuasiga ham qatnayotganiga besh yildan oshgan. U yerda karate mashqlarini o'rganar ekan.

Abdulloh menga medallarini ko'rsatdi. Uning 2 ta medali bor ekan. Kumushmi yoki oltinni bilmasdan-u, har holda 12 yoshli o'rtog'imni tabriklasam bo'ladi. Axir u murabbiyi Rustan Magdiyevdan sportning mashaqqatlari va mehnatlarini qunt bilan o'rganmoqda. Karatedagi ustoz Bahodir aka Abdullohga: «Karate seni hayotda har qadaming, har kuningda kerak bo'ladi», deya uqtirar ekan. Ammo mening sinfdoshim kelajakda zo'r sportchi bo'lmoqchi.


Abdulloh, sen chempion bo'lg'in, biz esa sen bilan faxrlanib yuraylik!

Sinfdoshing AZIZA

QUVNOQ MASHQLAR

Oddiy pufak sotib olasiz. Uni kim tez puflab shishirish o'yinini boshlaysiz. Albatta o'yin shartidan avval pufakni kim o'n marta puflay oladi, degan shartni qo'yasiz.

Bu o'yin juda oson-ku, deysizmi? To'g'ri, ana shu oson o'yin sizni nafas yo'llari va o'pka kasallanganda, o'pka sig'imining keng bo'lishiga yordam beradi.



Uyquga to'ymagan ko'zlaringizni uqalab, maktabga bormaslikka bahona qidirasizmi?

Biz esa bunday bahonalarga qarshi qiziqarli yana bir mashqni sizga o'rgatmoqchimiz.

Og'iz bilan chuqur nafas olinadi va burundan chiqariladi. Yoki hovuzda cho'milayotib chuqur nafas oling. Nafasni suv ichida og'izdan chiqaring. Agat suv ichida nafas olmasdan ko'proq turishni o'rgansangiz, uning foydasi sizning o'pkangizni yana-da baquvvat qiladi.



«Mutafakkir shoir» aylanma krossvord




Shaklda belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida raqam atrofiga:

1. Alisher Navoiy bolaligidan dunyoda eng do'st deb e'zozlagan manbaa.
2. Shoir «Xamsa»si dostonlaridan biridagi shoh Bahromning oqila yori.
3. Alisher Navoiyning tog'alaridan biri, zamonasining yetuk shoiri.
4. Ulug' shoirga zamondosh tarixchi, shoir.
5. Yirik nazmiy asar.
6. «Sab'ai sayyor» dostonining beshinchi hikoyasidagi Mehrning muhabbatiga munosib bo'lgan halol yigit, botir jangchi.
7. Alisher Navoiy 1456-yilda o'qishga borgan Erondagi shahar.
8. Shoir qalamiga mansub ibratli so'zdan: «Er kishiga zebu ziynat... va donishdir».
9. Alisher Navoiyning yer va mulk masalalari bayon etilgan asari.
10. «Layli va Majnun» dostonidagi hayot mushkulliklarni boshidan kechirgan bahodir va oliyanob inson obrazi.
11. Taniqli o'zbek adabiyotshunos olimlardan biri, shoir asarlari tadqiqotchisi.
12. Bastakor Muxtor Ashrafiyning Alisher Navoiy dostoni

asosida yozgan operasi.

13. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning «Navoiy» romani asosida ekranlashtirilgan ko'p qisimli filmda bosh qahramonni gavdalandirgan teatr san'atkori, O'zbekiston xalq artisti.
14. Alisher Navoiy dostonlaridagi qahramonlarni mo'yqalamda gavdalandirgan O'zbekiston xalq rassomi.
15. Noyob iste'dodini yuzaga chiqarishida Alisher Navoiy homiylik ko'rsatgan miniatyura san'ati ustasi, musavvir.
16. Shoir nomi bilan ataluvchi O'zbekiston Milliy bog' barpo etilgan shahar.
17. To'rt misradan iborat, tugal ma'no ifodalovchi mustaqil she'r.
18. Hadisi shariflar asosida Alisher Navoiy yozib qoldirgan she'riy asar.
19. Alisher Navoiy zamondoshi, qasidanavis shoir.
20. Shoirming hayoti va faoliyati bayon etilgan tarixiy romandagi Sultonmurodning suyukli yori.
21. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning buyrug'i bilan 1487-89-yillarda hokimlik qilgan shahar.
22. Shoirming 1492-yilda yozgan maktublar asosidagi qimmatli ma'lumotlarni bayon etilgan asari.
23. Alisher Navoiy g'azali bilan ijro etiladigan mashhur ashulalardan biri.



Dunyoda eng katta ilon – anakonda ekanligini bilasizmi?

Uning uzunligi o'n bir yarim metr keladi. Eng qizig'i, bu ilon yuztaga yaqin tirik tuxum qo'yadi.

ENG KATTA QIRQQULOQ

Dunyodagi eng katta qirqquloq (paporatnik) daraxtsimon bo'lib, u Yangi Zelandiyada o'sadi. Bu o'simlik spatiya turkumiga mansub, balandligi 24 metrga yetadi.



ENG KATTA MEVA

Dunyodagi eng katta xanjarsimon mevali o'simlik Malayziya davlatida o'sadigan oroksalondir. Uning balandligi 18 metr. Mevasining uzunligi 60-120 sm., eni 8 sm. keladi.

ZAHARLI ILON

Ilonlar haqida gap ketganda, eng zaharli bo'lgan ilon – yo'lbarsilonni tilga olish kerak. Bu ilon Tasmaniyada yashaydi. Bitta yo'lbarsilonning zahri 400 kishini o'ldiradi.

«HIKMATLAR» MUAMMONOMASI

Avvalo, Alisher Navoiy yozib qoldirgan quyidagi hikmatlarda keltirilib, raqamlarda ifodalangan so'zlarni topib, kalitni hal eting.

1. Karam va muruvvat ato va anodurlar, Vafu-yu hayo ikki 15,7,8,12,9,2. Farzand.
2. Suvning mazasi muz bilan, Oshning mazasi tuz bilan, Odamin yaxshiligi 4,11, 12, bila.
3. Tilga kuchli yeti olgan – 2,9,1,5,17,8,7,1,2. So'zga erk bergan – pastkash ahmoq.
4. So'zdirki nishon berur o'likka jondin, So'zdirki berur jong'a xabar jonondin, Insonni so'z ayladi hayvondin, Bilki, 10,6,15,7,3,5. Sharifroq yo'q ondin.
5. Kim aql yo'lida tutsa 8,7,13,14,9, oxir, Tong yo'q el ichinda bo'lsa dono oxir, Fahm aylamagi har ishga 7,14,16,9, oxir, Kim aql dalildir mador oxir.

Endi kalit so'zlari javoblari asosida shakl atrofidagi raqamlarni taalluqli harflar bilan almashtirib, muammonani hal eting. Bunda ulardan mutafakkir shoirning yana bir-ikki misradagi hikmatli so'zlarni bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR: To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi:
Ma'mura MADRAHIMOVA

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092

Adadi - 67373
Buyurtma N: J 6876